



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 3 (5)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

**Farg‘ona davlat universiteti uchun
MAXSUS SON**

3

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Abduvoxidov A.A. Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari.	7
Olimova N.X. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari.	11
Эргашев А.Х. Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране.....	15
Yulchiyev A.O. Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar.....	19
Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A. Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	23
Karimov Sh.X. Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash.....	30
O‘rinboyev D.B. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili.....	34
Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R. Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan).....	44
Israilova M.V. Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari.....	48
Turg‘unov M.M. Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari.....	53
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari.....	58
Mannopova M.S. Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar.....	63
Nematova Sh.E. Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi.....	68
Rasulov U.A. Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili.....	72
Raximov D.Sh. Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri.....	77
Teshabayeva O.N. Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi.....	85
Jaksimova Z.R. Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari.....	88
Yunusov A.R. "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities.....	92
Юнусов Ш. Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии.....	95
Xalmatjanova G.D. Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish.....	104
Xomidov Q.Q. O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari.....	109
Jo‘rayev H.Q. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari	114
Xakimov D.R. Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari.....	117
To‘xtasinova D. Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli.....	123
Xolmatov B.A. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash.....	127
Jumakulov Z.I., Baxromov B. O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli.....	131
To‘ychiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari.....	133
Abdisamatov Sh.A. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari.....	141
Asraqulov A.S. Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar.....	145
Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan.....	151
Muxtorov A.A., Mirzayev A.T. Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili.....	154
Usibjonova G.U., Mannopova M.S. Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari.....	161

Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N. O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli.....	166
Ximmatova G.K., To‘xtasinova D. Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish.....	170
Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T. Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish.....	174
Xasanova R., Teshabayeva O.N. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari.....	180
Zufarova G.A. Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi.....	184
Ergashev J.S. "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish	187
O‘rinov A.A. Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	192
Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A. Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish.....	197
Саиджоновна З.Б. Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги.....	201
Qodirov Z.E. Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi.....	205
Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati.....	210
Хайдаров Х. Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари.....	214
Махамადийев М.М. Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari..	217
Madaminov G‘.M. Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari.....	222
Nazirboyev D.D. Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari.....	227
Хасанова С.И. Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари.....	232
Teshaboyev B.A. Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises.....	237
Mustafoyeva Z.A. Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari.....	242
Xolmirzayev U.A., Muradova N.R. Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil.....	245
Sadullayev R.P. Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi.....	249
Мурадов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н. Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике.....	258
Tursunov O.B. Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash.....	269
Sayitbayev Sh.D. Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘shish.....	274
Ibodulloyeva Z.S. Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens.....	278
Salimova Z.S. Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari.....	282
G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K. Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari.....	286
Абдуллоев А.Ж. Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари.....	289
Rahimova M.I. O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari.....	294
Rahmatullayeva D.O. Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri.....	299
Valikulov Sh.Z. “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish.....	305
Турабекова Г.И. Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл.....	312
Tajirboyev S.O. Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari.....	316
Madaminov A.M. Sanoat korxonalari faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish istiqbollari (oziq-ovqat sanoati misolida).....	319

**QISHLOQ XO‘JALIGI ISHLAB CHIQRISHIDA TEJAMKORLIK DARAJASINI
STATISTIK BAHOLASH**

**СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА УРОВНЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ
СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОГО ПРОИЗВОДСТВА**

**STATISTICAL ASSESSMENT OF THE LEVEL OF ECONOMY IN AGRICULTURAL
PRODUCTION**

Xolmatov Baxtiyor Abdumutalovich

FarDU jahon va mintaqa iqtisodiyoti kafedrasida dotsenti

Annotatsiya

Mazkur maqolada Farg‘ona viloyati misolida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasi statistik ko‘rsatkichlar asosida baholandi. Tadqiqotda 2024–2025-yillar ma‘lumotlari asosida ishlab chiqarish hajmi, hosildorlik, resurs samaradorligi, suvdan foydalanish darajasi hamda iqtisodiy rentabellik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Natijalar viloyatda agrar sektor barqaror rivojlanayotganini va resurslardan foydalanish samaradorligi ortib borayotganini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, tejamkorlikni yanada oshirishning ustuvor yo‘nalishlari ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, tejamkorlik, resurs samaradorligi, hosildorlik, rentabellik, suv tejash texnologiyalari, agrar iqtisodiyot.

В данной статье на основе статистических показателей на примере Ферганской области была проведена оценка уровня экономики в сельскохозяйственном производстве. В исследовании проанализированы показатели объема производства, производительности, ресурсоэффективности, уровня водопотребления и экономической рентабельности на основе данных за 2024–2025 годы. Результаты показали, что сельскохозяйственный сектор в регионе стабильно развивается, а ресурсоэффективность повышается. Одновременно были научно обоснованы приоритетные направления дальнейшего повышения экономики.

Ключевые слова: сельское хозяйство, экономика, ресурсоэффективность, производительность, рентабельность, водосберегающие технологии, аграрное хозяйство.

In this article, the level of economy in agricultural production was assessed on the basis of statistical indicators using the example of the Fergana region. The study analyzed production volume, productivity, resource efficiency, water use level, and economic profitability indicators based on data for 2024–2025. The results showed that the agricultural sector in the region is developing steadily and resource efficiency is increasing. At the same time, priority areas for further increasing economy were scientifically substantiated.

Keywords: agriculture, economy, resource efficiency, productivity, profitability, water saving technologies, agrarian economy.

O‘zbekiston iqtisodiyotida agrar sektor strategik ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo‘jaligi yalpi ichki mahsulot tarkibida sezilarli ulushga ega bo‘lib, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Aholi zich joylashgan hududlardan biri bo‘lgan Farg‘ona viloyatida yer va suv resurslarining nisbatan cheklanganligi ishlab chiqarishda tejamkorlik masalasini dolzarb etadi.

So‘nggi yillarda respublikada agrar sohani modernizatsiya qilish, klaster tizimini rivojlantirish va suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan ilgari surilgan dasturlar agrar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Tejamkorlik iqtisodiy kategoriya sifatida ishlab chiqarish jarayonida cheklangan resurslardan maksimal natijaga erishish tamoyiliga asoslanadi. U samaradorlik, iqtisodiy ratsionallik va optimallik tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ayniqsa agrar sohada alohida ahamiyat kasb etadi.

Tejamkorlik (iqtisodiy tejam) — bu resurslar sarfini kamaytirgan holda yoki o‘zgartirmagan holda ishlab chiqarish natijalarini oshirish jarayonidir.

Nazariy jihatdan tejamkorlik quyidagi uch asosiy prinsipga tayangan:

1. Resurslar cheklanganligi prinsipi. Iqtisodiyot nazariyasiga ko‘ra, yer, kapital, mehnat va suv kabi resurslar cheklangan bo‘lib, ularni optimal taqsimlash zarur.

2. Muqobil xarajatlar (opportunity cost) prinsipi. Har qanday resursdan foydalanish boshqa imkoniyatdan voz kechishni anglatadi. Shuning uchun resursdan eng yuqori foyda beruvchi variant tanlanishi lozim.

3. Optimal nisbat prinsipi. Ishlab chiqarish omillari o‘rtasidagi nisbat iqtisodiy samaradorlikni belgilaydi.

Tejamkorlik va samaradorlik tushunchalari bir-biriga yaqin, biroq aynan bir xil emas.

- Samaradorlik — natija va xarajat nisbatini ifodalaydi.
- Tejamkorlik — resurslardan oqilona va minimal yo‘qotish bilan foydalanishni anglatadi.

Nazariy jihatdan iqtisodiy samaradorlik quyidagicha ifodalanadi:

$$\text{Samaradorlik} = \text{Natija} / \text{Xarajat}$$

Agar natija bir xil qolgan holda xarajat kamaytirilsa yoki xarajat o‘zgarmagan holda natija oshirilsa — bu tejamkorlikdir.

Qishloq xo‘jaligida tejamkorlikning o‘ziga xos jihatlari mavjud:

1. Yer asosiy ishlab chiqarish omili — yer unumdorligi tejamkorlik darajasini belgilaydi.
2. Tabiiy omillarga bog‘liqlik — iqlim va suv resurslari ta’siri yuqori.
3. Biologik jarayonlar mavjudligi — hosil yetishtirish vaqt omiliga bog‘liq.

Shuning uchun agrar tejamkorlik quyidagi ko‘rsatkichlar bilan baholanadi:

- hosildorlik (ga/ts),
- 1 m³ suvga to‘g‘ri keladigan mahsulot,
- 1 ishchiga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarish hajmi,
- tannarx va rentabellik.

Nazariy jihatdan tejamkorlik quyidagi model orqali tushuntiriladi:

$$TR = Y / R$$

Bu yerda:

- TR — tejamkorlik darajasi,
- Y — yakuniy mahsulot hajmi,
- R — jami resurs sarfi.

TR ko‘rsatkichi qanchalik yuqori bo‘lsa, ishlab chiqarish shunchalik tejamkor hisoblanadi.

Zamonaviy iqtisodiy nazariyada tejamkorlik faqat iqtisodiy ko‘rsatkich emas, balki ekologik va ijtimoiy omillarni ham qamrab oladi.

World Bank va Food and Agriculture Organization konsepsiyalariga ko‘ra, resurslarni qayta tiklanadigan tarzda boshqarish, suv va yer degradatsiyasini kamaytirish, ekologik barqarorlikni ta’minlash tejamkorlikning ajralmas qismidir.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — Farg‘ona viloyatida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik tahlil asosida baholash hamda uning rivojlanish istiqbollari aniqlashdan iborat.

Tadqiqotda iqtisodiy-statistik tahlil, taqqoslash, dinamik qatorlar tahlili hamda nisbiy ko‘rsatkichlar usullaridan foydalanildi. Ma’lumotlar manbai sifatida O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi va Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi rasmiy ma’lumotlaridan foydalanildi.

Tejamkorlik darajasi quyidagi indikatorlar orqali baholandi:

- ishlab chiqarish hajmining o‘sish sur’ati;
- hosildorlik (sentner/ga);
- mehnat unumdorligi;

- fond qaytimi;
- mahsulot tannarxi va rentabellik darajasi.

Ochiq ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2025-yil yakunlari bo‘yicha viloyatda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi barqaror o‘shish tendensiyasini namoyon etdi. Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi umumiy hajmi 2024-yilga nisbatan 105,6 foizni tashkil etdi. Mazkur ko‘rsatkich agrar sektorda ishlab chiqarish hajmining kengaygani va resurslardan foydalanish samaradorligi oshganini ko‘rsatadi.

Viloyatda g‘alla yetishtirish yetakchi yo‘nalishlardan biri bo‘lib, 2025-yilda 776,6 ming tonna g‘alla hosili yig‘ib olindi. Ushbu natija viloyatni respublika miqyosida yetakchi hududlar qatoriga olib chiqdi. Agar o‘rtacha hosildorlik ko‘rsatkichlari tahlil qilinsa, sug‘oriladigan yer maydonlaridan yuqori hosil olinayotgani kuzatiladi. Bu esa yer resurslaridan foydalanish samaradorligining oshganini bildiradi.

Sabzavotchilik va kartoshkachilik ham viloyat agrar ishlab chiqarishida muhim o‘rin tutadi. 2025-yilda sabzavot yetishtirish hajmi 30,5 ming tonnani, kartoshka 15,1 ming tonnani tashkil etdi. Meva va rezavorlar yetishtirish hajmi 24,7 ming tonnaga yetdi. Ushbu ko‘rsatkichlar viloyatda ekinlar diversifikatsiyasi kuchayganini va yer resurslaridan kompleks foydalanish yo‘lga qo‘yilganini ko‘rsatadi.

Tejamkorlik darajasini baholashda iqtisodiy ko‘rsatkichlar ham muhim o‘rin tutadi. Qishloq xo‘jaligida tejamkorlik, avvalo, mahsulot tannarxining pasayishi va rentabellik darajasining oshishida namoyon bo‘ladi. So‘nggi yillarda viloyatda zamonaviy agrotexnologiyalar, jumladan, suv tejovchi sug‘orish tizimlari, yuqori hosilli urug‘lik navlari va mexanizatsiya darajasining oshirilishi ishlab chiqarish xarajatlarini nisbatan kamaytirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, tomchilatib sug‘orish texnologiyalarining keng joriy etilishi suv sarfini 25–30 foizgacha qisqartirish imkonini bermoqda.

Mehnat resurslari samaradorligi ham ijobiy dinamikani ko‘rsatmoqda. Bir ishchiga to‘g‘ri keladigan yalpi mahsulot hajmi ortib bormoqda, bu esa qishloq xo‘jaligida mexanizatsiya va texnik ta‘minot yaxshilanayotganini anglatadi. Fond qaytimi ko‘rsatkichlari ham o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lib, asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi oshayotganini tasdiqlaydi. Mehnat unumdorligi o‘shishi mexanizatsiya darajasining ortishi bilan izohlanadi. Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligi ham oshgan bo‘lib, fond qaytimi ko‘rsatkichlari ijobiy dinamikaga ega.

Rentabellik darajasi ayrim yo‘nalishlarda 18–22 foiz atrofida shakllangan. Bu ko‘rsatkich agrar ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi ortib borayotganini tasdiqlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, viloyatda agrar ishlab chiqarish intensiv rivojlanish bosqichiga o‘tmoqda. Resurslardan oqilona foydalanish, ayniqsa suv va yer resurslarini boshqarish samaradorligi tejamkorlik darajasini belgilovchi asosiy omillardir.

Ko‘rinib turibdiki, Farg‘ona viloyatida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasi ijobiy o‘shish tendensiyasiga ega. Ishlab chiqarish hajmi, hosildorlik va rentabellik ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi agrar sohada samarali boshqaruv mexanizmlarining shakllanayotganini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, mavjud muammolar ham saqlanib qolmoqda. Ayrim hududlarda yer unumdorligining pasayishi, suv resurslarining cheklanganligi va yoqilg‘i-energetika xarajatlarining ortishi ishlab chiqarish tannarxiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shuning uchun tejamkorlikni yanada oshirish uchun ilmiy asoslangan almashlab ekish tizimini keng joriy etish, raqamli monitoring tizimlaridan foydalanish va logistika infratuzilmasini rivojlantirish zarur.

Shuningdek, energiya narxlarining o‘zgaruvchanligi, iqlim omillari va logistika xarajatlari ishlab chiqarish samaradorligiga ta‘sir ko‘rsatmoqda. Kelgusida raqamli agrotexnologiyalarni joriy etish, aqlli sug‘orish tizimlarini kengaytirish va ilmiy asoslangan agrotexnik tadbirlarni qo‘llash tejamkorlikni yanada oshirishi mumkin.

Kelgusida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ilmiy yondashuvni kuchaytirish viloyat agrar sektorining barqaror rivojlanishini ta‘minlaydi.

Umuman olganda, qishloq xo‘jaligida tejamkorlikni oshirish — resurslardan oqilona foydalanish, tannarxni kamaytirish va rentabellikni ko‘paytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni talab etadi. Quyida tashkiliy-iqtisodiy, texnologik va institutsional yo‘nalishlar kesimida takliflar beramiz.

1. Yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish
 - ilmiy asoslangan almashlab ekish tizimini joriy etish.
 - agrokimyoviy tahlillar asosida o‘g‘itlashni optimallashtirish.
 - yuqori hosilli va iqlimga mos navlarni keng joriy etish.
2. Suv resurslaridan tejamkor foydalanish
 - tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyalarini kengaytirish.
 - aqlli sug‘orish tizimlari (sensorli monitoring).
 - irrigatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish.
3. Mehnat va texnika samaradorligini oshirish
 - mexanizatsiya va avtomatlashtirish darajasini oshirish.
 - raqamli agrotexnologiyalar (precision farming) gps, dron va agro-monitoring tizimlari orqali resurs sarfini optimallashtirish.
 - fermerlar malakasini oshirish dasturlarini kuchaytirish.
4. Moddiy-texnika resurslari va energiya tejamkorligi
 - energiya tejamkor uskunalarga o‘tish.
 - mahalliy xomashyodan foydalanishni kengaytirish.
 - kooperatsiya va klaster tizimini rivojlantirish.
5. Moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish
 - xarajatlarni boshqarish tizimini joriy etish (cost management).
 - raqamli buxgalteriya va boshqaruv hisobini kengaytirish.
 - investitsiyalarni jalb qilish va davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlaridan foydalanish.
6. Ekologik va barqaror rivojlanish yo‘nalishlari
Food and Agriculture Organization va World Bank tavsiyalariga ko‘ra:
 - suv va yer resurslarini qayta tiklanadigan asosda boshqarish,
 - ekologik toza ishlab chiqarishni rivojlantirish,
 - iqlim o‘zgarishiga moslashuv strategiyalarini ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Qishloq xo‘jaligi statistik to‘plami. Toshkent, 2025.
2. Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi. Hududiy statistik hisobotlar. Farg‘ona, 2025.
3. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi. Agrar sohani rivojlantirish strategiyasi. Toshkent, 2024.
4. Abdug‘aniyev A. Agrar iqtisodiyot asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
5. Karimov Sh. Qishloq xo‘jaligida resurslardan samarali foydalanish. Toshkent: Fan, 2021.